BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/29.10.2021.T.101.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

SALIMOV SHUHRAT HALIMOVICH

PAXTA VA POLYESTER TOLALARI ARALASHMASIDAN PILTA TAYYORLASH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

05.06.02-To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Buxoro-2024

UO‘K: 677.21.017

**Texnika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferatining mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD)по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD)
of technical sciences**

Salimov Shuhrat Halimovich
Paxta va polyester tolalari aralashmasidan pilta tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish ……. 3

Салимов Шухрат Халимович
Совершенствование технологии изготовления ленты из смеси хлопковых и полиэстерных волокон..... 21

Salimov Shukhrat Khalimovich
Improving the technology of manufacturing tape from a mixture of cotton and polyester fibers...……..... 41

E’lon qilingan ishlar ro’yxati
Список опубликованных работ
List of published works..... 45

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/29.10.2021.T.101.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

SALIMOV SHUHRAT HALIMOVICH

PAXTA VA POLYESTER TOLALARI ARALASHMASIDAN PILTA TAYYORLASH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

05.06.02- To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish

TEXNIKA FANLARI BO’YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Buxoro-2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/T4266 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida www.bmti_info@edu.uz va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Nurboyev Rashid Xudoyberdievich** texnika fanlari nomzodi, professor
Rasmiy opponentlar:	**Hamrayeva Sanovar Atoyevna** texnika fanlari doktori, professor
	Yuldashev Jamshid Qambaraliyevich texnika fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Jizzax Politexnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro muhandislik-texnologiya instituti xuzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/29.10.2021.T.101.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil 21 dekabr soat 10^{00} dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200117, Buxoro sh., Q.Murtazoev ko'chasi 15-uy, Tel: (+99865)223-78-84, Faks: (99865)223-78-84; E-mail: bmti_info@edu.uz, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti 1-binosi, 2-qavat, 202-xona).

Dissertatsiya bilan Buxoro muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 334 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200100, Buxoro sh., Q.Murtazoev ko'chasi 15-uy, Tel: (+99865)223-78-84, Faks: (99865)223-78-84; E-mail: bmti_info@edu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil 12.06. kuni tarqatildi.

(2024 yil 12 06 dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

X.Q. Raxmonov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi
texnika fanlari doktori, professor

S.S. Musayev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi
texnika fanlari nomzodi, professor

S.S. Musayev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi texnika fanlari nomzodi, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun energiya-resurstejamkor texnologiya va texnika vositalarini qo‘llash yeyakchi o’rinlardan birini egallamoqda. To‘qimachilik sanoatida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilishi jadal suratda o‘sishi kuzatilmoqda. Dunyo to‘qimachilik sanoatida paxta tolasi 67%, kimyoviy tola 20%, jun tolasi 10%, lub tolalari 1,6% va boshqa tolalar 1,4% ni tashkil etmoqda. Bugungi kunda aholi sonining ko‘payishi, paxta dalalarining qisqartirilishi, to‘qimachilik xomashyosi hisoblangan tabiiy tolaga bo‘lgan ehtiyojni oshishi, aralash tolali to’qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaradigan texnika va texnologiyalarni amaliyotga joriy etishni taqozo etmoqda. Shu jihatdan aralash tolali to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun ish sifati yuqori hamda energiya-resurstejamkor texnika va texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahon bozorida aralash tolali yigirilgan ip va gazlamalar ishlab chiqarish uchun resurstejamkor texnologiyalar va texnika vositalarining yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada yigirilgan iplarning sifat ko‘rsatkichlarini tubdan o‘zgartirish, raqobatbardosh ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan ip ishlab chiqarish kabi yo‘nalishlarda maqsadli ilmiy izlanishlarni amalga oshirish, shu bilan birga, ip sifati va raqobatbardoshligini oshirishning samarali tizimini yaratish hamda texnologiyalarini ishlab chiqishga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish, soha korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda paxta tolasi ishlab chiqarish va uni chuqur qayta ishlash asosida keng assortimentdagi yuqori sifat va past tannarxga ega bo‘lgan to‘qimachilik va yengil sanoat maxsulotlarini ishlab chiqarish va raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”[1] , jumladan, «...to‘qimachilik sanoatini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish va eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish...» bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan aralash tolali to‘qimachilik mahsulotlari assortimentini ko’paytirish va ularni ishlab chiqarish jarayonidagi texnik va texnologik jihatdan modernizatsiyalashgan mashinalarni yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “To’qimachilik va tikuv-trikotaj sonoatini jadal rivojlantirish chora tadbirlar to’g’risida” gi 2017-yil 14-dekabrdagi PF-5285-sonli Farmoni va 2019-yil 12-fevraldagi “To’qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4186-sonli Farmoni hamda mazkur

[1] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”

faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo’yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurs-tejamkorlik» ustuvor yo’nalishiga mos keladi.

Muammoning o’rganilganlik darajasi. To’qimachilik iplarining assortimenti va ularni ishlab chiqarish, texnologik xossalari hamda sifat ko’rsatkichlarini yaxshilash bo’yicha xorijda V.E.Zotikov, A.N.Solovyev, A.N.Vannikov, V.A.Usenko, V.E.Gusev, A.G.Sevostyanov, Ye.I.Birenbaum, L.N.Ginzburg, J.E.Ford va boshqa tadqiqotchilar shug’ullanishgan. Qayta ishlanayotgan tolaning turiga bog’liq bo’lmagan holda aralashma komponentlariga talablar shakllantirilgan va ularning geometrik xususiyatlari mahsuot sifatiga ta’siri o’rganib chiqilgan.

Respublikamizda turli tarkibli iplar ishlab chiqarish asoslarini o’rganish bo’yicha tadqiqotlar X.A.Alimova, X.X.Ibragimov, Q.J.Jumaniyazov, S.Matismailov, S.R.Aytimbetov, Sh.R.Marasulov, A.Pirmatov va boshqalar tomonidan bajarilgan.

Mazkur tadqiqotlar natijasida muammoning bir qismi qamrab olingan bo’lib, hozirgi kunda aralash tolali xomashyodan samarali foydalangan holda sifatli to’quvchilik iplarini ishlab chiqarish, hamda sifat ko’rsatkichlarini aniqlash va optimal variantini tavsiya etish bo’yicha tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog’liqligi.

Dissertatsiya ishi Buxoro muhandislik – texnologiya instituti va “Navoiy kon metallurgiya kombinati” AJ o’rtasida 2023-yil 10-avgustdagi “Po’lat materiallarni yeyilishga va korroziyaga bardoshligini oshiruvchi nanokompozitli metal qoplama bilan qoplash texnologiyasini yaratish” mavzusidagi №07/2023-MIM-sonli xo’jalik shartnomasi doirasida Buxoro muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Piltalash mashinasida yangi konstruksiyali cho’zish asbobidan foydalanib yigirilgan ipning sifatini yaxshilab, mahsulot raqobatbardoshligini oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

piltalash mashinalarida paxta va kimyoviy (polyester) tolalarni qo’shilishida cho’zish asbobining zamonaviy konstruktiv elementlarini takomillashtirish bo’yicha olib borilgan tadqiqotlarni tahlil qilish.

piltalash mashinalarida qo’shilgan turli piltalardan olingan iplarning tuzilishini va ipning fizik-mexanik xususiyatlarini aniqlash.

pilta tuzilishini, piltadagi tolalarni to’g’rilashni solishtirish orqali ularni bir tekisda bo’lishini ta’minlash.

yangi konstruksiyadagi cho’zish silindrlari bilan pilta mashinasi sozlamalarining pilta, pilik va ip sifatiga ta’sirini o’rganish. Ishlab chiqarish sharoitida qayta tarash halqali yigirish texnologiyasi tizimidagi takomillashtirishga qaratilgan piltalash mashinasini modernizatsiya qilish uchun ishlab chiqilgan

bosim valiklari va ta’minlovchi silindrlariga ta’sir qiluvchi tashqi kuchlar momentini aniqlash.

Tadqiqotning ob’yekti sifatida yarim tayyor mahsulotlar va pillik qayta tarash tizimida halqali yigirish mashinasida olingan iplar tuzilishini takomillashtirishga asoslangan piltalash mashinasi olingan.

Tadqiqotning predmeti piltalash mashinasining takomillashtirilgan cho‘zish asbobining ishchi organlari parametrlari va uning ish rejimlari va ko’rsatkichlari hamda ularning o’zgarish qonuniyatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida matematikaviy hisoblash qoidalari, nazariy mexanika qonuniyatlari, statistik taxlil usullari, to’qimachilik materiallarini sinash, iplar sifatini baholashning zamonaviy o’lchov asboblarida o‘lchash usullari hamda mavjud me’yoriy xujjatlarda belgilangan usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

piltalash mashinasida piltalarni cho‘zish asbobini modernizatsiya qilish orqali olingan pilta va pilliklardan halqali yigirish usulida olingan ipning fizik-mexanik xossalari, chiziqli zichligi bo‘yicha variatsiya koeffitsiyenti, ipning nisbiy uzilish kuchi, uzilish kuchi bo‘yicha variatsiya koeffitsiyenti, ipning notekisligi, ipning cho‘zilishi ishlab chiqarish korxonasida aniqlangan.

piltalash mashinasining cho‘zish asbobiga ta’sir qiluvchi kuchlarni inobatga olgan holda piltalash mashinasi parametrlarini hisoblash tenglamalari, optimallashtirish parametrlari, pilta massasining ko‘ndalang kesim bo‘yicha o‘zgarish koeffitsiyenti, 1 m bo‘laklar bo‘yicha o‘zgarish koeffitsiyenti va pilta uzilishining nisbiy ishi ko’rsatkichlarining ahamiyatini baholash uchun regressiya tenglamalari ishlab chiqilgan.

piltalarni qo‘shish jarayonida cho‘zish asbobiga o‘rnatilgan silindrlarning diametri, birinchi va ikkinchi, ikkinchi va uchinchi silindrlar orasidagi masofa, silindr o‘qiga nisbatan 5°45′ burchak ostida yo‘naltirilgan o‘yiq chiziqli riflyalar bo‘yicha piltaning II va III silindrlar orasidagi xususiy cho’zish, valiklarga yuklanish, pilta tuzilishining notekislik qonuniyati ishlab chiqilgan.

ipning uzilishidagi solishtirma uzilish yuki va cho’zilishining ortishida uzilish kuchi va ko’ndalang kesimidagi o’zgarish koeffitsiyentlarining kamayishini optimallashtirish parametrlari uchun regressiya tenglamalarining koeffitsiyentlari hisoblangan va ipning chiziqli zichligi bo‘yicha variatsiya koeffitsiyenti 1,08 % dan 1.02 % ga kamayishi, uzilish kuchi 432 sN dan 468 sN ortishi hamda uzilish kuchi bo‘yicha variatsiya koeffitsiyenti 10,02 % cv dan 7,96 % cv ga kamayishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yigirish usulida yigirilgan ip qo’llanilish sohalarini va ipga qo’yilgan talablardan kelib chiqib, ularning sifatini oshirish maqsadida piltalash mashinasining cho’zish asbobi modernizatsiya qilingan.

modernizatsiya qilingan piltalash mashinasining cho’zish asbobini ishlab chiqarishga joriy etish natijasida pilta tuzilishining notekisligini kamayishi, ipning uzilishi kamayib uning sifatini yaxshilanishi va bu orqali halqali yigirish mashinasining unumdorligini oshishi hamda resurs sarfi kamayishi aniqlangan.

ip sifatiga ta’sir qiluvchi omillarni boshqarish, jarayonlarni barqarorlashtirish va piltalash mashinasining cho’zish asbobini rostlash pilliklash, yigirish jarayonidan keyingi texnologik jarayonlarga ham ta’sir ko’rsatishi tajribalar natijasida asoslangan yangi takomillashtirilgan piltalash mashinasining cho’zish asbobida ipning notekisligini kamaytirish uchun ipning harakatini nazariy jihatdan tadqiq etilgan hamda olib borilgan tajribalar natijasida isbotini topgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotning natijalarini solishtirish, baholash mezonlariga ko’ra ularning mos kelishi, o’tkazilgan tadqiqotlarning ijobiy natijalari va ular o’rganilayotgan sohada ma’lum bo’lgan baholash mezonlari bo’yicha hisoblash tajribalari tahlili va standart talablari tajribaviy ma’lumotlar bilan taqqoslanib, tadqiqotning ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ip ishlab chiqarishda mahsulotga qo’yilgan talablardan kelib chiqib, yigiruv korxonalaridagi mavjud piltalash jarayonida ishchi qismlarning tezlik parametlarini matematik modellar yordamida muqobillashtirilganligi ipning fizik-mexanik xossa ko’rsatgichlariga ta’sir etgani bilan izohlanadi.

Ip yigirish jarayonlarida tolalarni titish, tozalash va tarash tizimlari mashinalari ishchi qismlari parametrlari xilma-xil bo’lib, piltalash mashinalari cho’zish asbobida ishlab chiqilgan yangi konstuktsiyadan foydalanishi ishqalalanish kuchi maydonini barqarorlashtirish hisobiga piltalash jarayonini normallashtirish va ularni to’g’ri tanlash, texnologik jarayonlarda paxta va polyester tolalarining xossalarini saqlagan holda yigirilgan iplarni xalqaro me’yorlarda talab etilgan darajadagi xususiyatlarini ta’minlash ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Piltalash mashinasida yangi konstruksiyali cho’zish asbobining parametrlari va ish rejimlarini asoslash bo‘yicha olingan natijalar asosida:

taklif etilayotgan turli tola tarkibli to‘quvchilik iplarini ishlab chiqarish maqsadida olib borilgan tadqiqotlar asosida RSB-D 40 piltalash mashinasi cho’zish asbobining yangi konstruksiyasi yaratilgan va O‘zbekiston Respublikasi Intellektual Mulk Agentligining № FAP 2497-sonli foydali model patenti olingan.

taklif etilayotgan turli tola tarkibli to‘quvchilik iplarini ishlab chiqarish texnologiyasi “O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi tarkibiga kiruvchi “Merganteks” MCHJ ip ishlab chiqarish korxonasida joriy qilingan (“O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasining 2024- yil 23-maydagi № 03/25-1118 ma’lumotnomasi). Natijada, yangi konstruksiyadagi cho’zish asbobidan foydalanish orqali olingan piltaning kesimi bo’yicha notekisligi 23% ga, 1 m bo’laklar bo’yicha notekisligi 30% gacha pasayganligi tajriba sinov natijalari asosida aniqlandi hamda halqali yigiruv mashinasida uzilish soni 62% dan 29% gacha kamayib, ip uzilishlar soni1000 dona urchuqda bir soatda 64 tadan 40 taga kamaydi va yigiruv mashinasida ip uzilgan vaqtda qayta ishlashga yuboriladigan chiqindiga chiqadigan pillik va ipning miqdori kamaydi hamda ipning sifat ko‘rsatkichlari yaxshilanishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilib, O‘zbekiston Respublikasi intellektual mulk Agentligining 1 ta foydali model (FAP 2497) patenti olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to’rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 112 betni tashkil etgan.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek tadqiqotning obyekti va predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi ko’rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyatliligi ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tolali aralashmalarning xossalari, ularni qayta ishlash usullari va aralash ip ishlab chiqarishni loyihalash bo’yicha adabiyotlar tahlili.”** deb nomlangan birinchi bobida qayta ishlangan tolaning xususiyatlariga qarab ipning asosiy fizik-mexanik parametrlarini tahlil qilish hamda bir va turli tarkibli tolalardan tayyorlangan iplarning pishiqlik xususiyatlari o’rganilib, tahlil qilingan. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, piltaning sifatini aniqlash bilan bog’liq masalalar, ayniqsa, paxta tolasi aralashmasiga kimyoviy tola singib ketish foizini o‘zgartirishda, tolalarning uzunligi bo‘yicha tarqalish tabiati, kimyoviy hamda paxta tolali aralashmalardan pilta, pillik va ip ishlab chiqarish jarayonlari haqida ma’lumotlar berilgan.

Disssertatsiyaning **“Halqali yigirishda tarkibida turli tolali komponentlar bo’lgan ipning asosiy fizik-mexanik ko’rsatkichlarini aniqlash”** deb nomlangan ikkinchi bobida piltalash mashinalarining asosiy vazifalari, piltalash mashinasi chozish asbobining turlari, piltalash mashinasining cho’zish asbobi konstruksiyasining mahsulot sifatiga ta’sirini nazariy va eksperimental tadqiqotlariga bag’ishlangan. Rieter firmasining RSB-D 40 rusumli piltalash mashinasi cho‘zish asbobi tadqiq qilingan hamda paxta va sintetik tolalar aralashmasidan olingan piltani cho’zish uchun mo’ljallangan cho‘zish asbobi nazariy tahlil qilingan. Piltalash mashinasi tolalarni to‘g’rilash va parallellashtirish, cho‘zishda riflaning $\alpha = 5°45'$ burchak ostida piltalarga ta’sir natijasida piltalarni cho‘zish natijasida qarshilik kuchlari hosil bo‘ladi va bu qarshilik kuchi bir tekisda cho‘zishda piltalarni parallellashda silindrlarning qamrash burchagiga va burchak tezliklarini ratsional qiymatlarini tanlash orqali nazariy tadqiqotlar o‘tkazildi.


Bir yo‘nalishda yo‘naltirilgan riflyali silindrlar yordamida tolali mahsulotning notekisligini kamaytirishda piltalarga ta’sir qiluvchi tashqi kuchlarni va silindrlarni aylanish chastotalariga bog’liqligini hamda riflyali silindrlar orasidagi masofalarni to‘g’ri tanlash sintetik va paxta tolali piltalarni bir tekisda cho‘zish uchun imkon beradi. Takomillashtirilgan piltalarni cho‘zish sxemasi 1-rasmda keltirilgan.



3;4;5 - cho’zish asbobi riflyali silindrlari; L_1 -birinchi va ikkinchi silindr orasidagi masofa; L_2 -birinchi va ikkinchi silindr orasidagi masofa;

1-rasm. Takomillashtirilgan piltalarni cho‘zish sxemasi

Piltalash mashinasining cho‘zish asbobi quyidagicha ishlaydi: birinchi silindrda 3 diametrli d_1=34 mm bo‘lgan parallel joylashgan oltita pilta (1) va (2) birlashtiriladi, bu yerda paxta va sintetik tolalarning uchlari tekislanadi va cho‘ziladi, so‘ngra diametri d_2=36 mm bo‘lgan ikkinchi silindr (4) ga yuborilgan bo‘lsa, bu yerda tolalar cho‘zilish va yupqalashda davom etadi va diametri d_3=40 mm bo‘lgan uchinchi silindr (5) ga uchlari to‘g’rilanmagan tolalar ingichka bo‘lib, to‘g’rilanadi.




1-100% paxta tolasidan olingan piltalar; 2-100% polyester tolasidan olingan piltalar; α - silindr o‘qiga nisbatan burchak ostida yo‘naltirilgan o‘yiq chiziqli riflyalar qiyalik burchagi $5^0$45' qilib olingan

2-rasm. Sintetik va paxta tolali piltalarni cho‘zish sxemasi

Natijada berilgan chiziqli zichlikka ega bo‘lgan ipga mos keladigan pilta olinadi. Ushbu piltadan olingan ipning silliqligi oshadi, ipning notekisligi bartaraf qilinadi va uning mustahkamligi ortadi. Yigirish jarayonida ipning uzilishi kamayadi va ish unumdorlik oshadi.

Riflyali silindri bilan sintetik va paxta tolali piltalarni ta’sirlashuv hisob sxemasi 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm. 1-Silindr bilan sintetik va paxta tolali piltalarning ta’sirlashuv hisob sxemasi

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda kuchlarni muvozanat shartiga asosan oltita piltani birinchi riflyali silindrik zona sirti bilan sintetik va paxta tolali pilta orasidagi ishqalanish kuchi quyidagi ifoda orqali aniqlandi:

$$F_{ishq}=\left\{\left(m_{rs}+m_{ps}\right)\left[\left(\frac{\pi n_{rs}}{30}\right)^2 R_1\right]+\frac{\kappa_s\cdot\kappa_p}{\kappa_s+\kappa_p}\left(1-\cos\frac{\alpha}{2}\right)\right\}\cdot f \qquad (1)$$

Olingan ifodani keltirib chiqarishda harakat barqaror rejimida, ya’ni tezlanish qiymati nolga teng bo‘lgan hisobi uchun aniqlanadi.


Ishqalanish kuchini birinchi riflyali silindr parametrlariga bog’liqligini aniqlash uchun, ularning hisob qiymatlari quyidagi oraliqlarda inobatga olingan:

$$n_{ц}=(10\div 20)\ \text{ayl/min};\quad R_1=17.5\ \text{mm};\quad m_{ц}=(100\div 124)\cdot 10^{-3}\ kg;$$

$$m_n=(15\div 25)\cdot 10^{-3}\ kg;\quad \alpha=(5°45'\div 9°45');$$


$$\kappa_c=(15\div 25)\ \text{sN/mm};\quad \kappa_n=(4.5\div 7.0)\ \text{sN/mm};\quad f=0.2\div 0.3$$

Ma’lumki, qanchalik massa qiymatlari ortsa ishqalanuvchi sirtlardagi bosim kuchi ortadi, ya’ni ishqalanish kuchi kuchayadi. Natijada uchlari tekislanadi va cho‘ziladi 4-5-rasmlardagi grafiklar tahliliga asosan silindr umumiy massasi $0.75\cdot10^{-1}$ kg dan $2.0\cdot10^{-1}$ kg gacha ortganda va ishqalanish koeffitsiyenti minimal 0.2 qiymatida F_{ish} qiymatlari $0.1\cdot10$ sN dan $0.58\cdot10$ sN gacha chiziqli qonuniyatda ortib boradi. Mos ravishda ishqalanish koeffitsiyenti 0.3 gacha ko‘payganida F_{ish} ni qiymatlari $0.315\cdot10$ sN dan $1.18\cdot10$ sN gacha chiziqli bog’lanishda ortib boradi. Birinchi riflyali silindrning sintetik va paxta tolali piltalarni sirpanmasdan belgilangan tezlikda ishchi qismga siljitish uchun ishqalanish kuchi bo‘lishi piltani cho‘zishni yetarli darajada talab etiladi.



1-f=0,2; 2-f=0,25; 3-f=0,3

4-rasm. Tavsiya etilgan birinchi riflyali silindrning umumiy massali piltani cho‘zishda ishqalanish kuchiga bog’liqlik grafigi



$1-r=8.5\cdot10^{-3}$ m; $2-r=9.0\cdot10^{-3}$ m;


$3-r=9.5\cdot10^{-3}$ m; $4-r=10\cdot10^{-3}$ m;

$5-r=10.5\cdot10^{-3}$ m;

5-rasm. Birinchi riflyali silindr bilan sintetik va paxta tolali piltalar orasidagi ishqalanish kuchini piltalar bikrliklariga bog’liqlik grafigi


Ikkinchi tomondan ta’kidlash lozimki, tolali piltaga bo‘lgan bosimni ortishi bilan tolalarni shikastlanishi ham ortib boradi. Shuning uchun ishqalanish kuchini $(0.8\div1.1)\cdot10$ sN oralig’ida bo‘lishini ta’minlash uchun ta’minlovchi silindr umumiy massasini tavsiya qiymatlari $(1.8\div2.5)\cdot10^{-1}$ kg, hamda $f=0.2\div0.25$.

Ishqalanish kuchi ko‘p jihatdan riflyali silindr va aralash piltaning bikrligiga hamda aralash tolani piltali deformatsiyalanish qiymatiga, ya’ni zichligiga to‘g’ridan-to‘g’ri bog’liqdir. 5-rasmda birinchi silindr bilan aralash tolali pilta orasidagi ishqalanish kuchini aralash tolali pilta bikrlik koeffitsiyentlariga bog’liqlik grafiklari keltirilgan.Qurilgan grafiklar tahlili shuni taqozo etadiki, riflyali silindr va aralash tolali piltani keltirilgan umumiy bikrlik koeffitsiyenti 2.8 sN/mm da 8.0 sN/mm hamda silindrning radius qiymati R_1=17,5mm bo‘lganida ishqalanish kuchi $0.19\cdot10$ sN dan $0.52\cdot10$ sN gacha chiziqli bog’lanishda ortib boradi. Riflyali silindr bilan aralash tolani pilta orasidagi ishqalanish kuchi $0.45\cdot10$ sN dan $1.12\cdot10$ sN gacha chiziqli qonuniyatda ortib boradi. Demak, birinchi silindr bilan aralash tolali piltan orasidagi ishqalanish kuchini ko‘paytirish uchun silindrning diametrini hamda sintetik va paxta tolali piltalarning aralashmalari natijasidagi bikrlik koeffitsiyentlari $(7.0\div9.0)$ sN/mm oralig’ida tanlash maqsadga mufoviqdir. Bunda birinchi silindr radiusi R_1 = 17,5mm bo‘lishi tavsiya etiladi. Birinchi silindrning tezligi, ya’ni ish unumi asosan burchak tezligiga bog’liqdir.



6-rasm. Birinchi silindrdagi zonasida aralash tolali piltalarni cho‘zishda turli xil burchakdagi riflyalar $1-\alpha=9°45'$; $2-\alpha=8°45'$; $3-\alpha=7°45'$; $4-\alpha=6°45'$; $5-\alpha=5°45'$; **qiymatida va burchak tezligiga bog’liqlik grafiklari**

6-rasmda birinchi silindr bilan aralash tolali pilta orasidagi ishqalanish kuchini silindr burchak tezligiga bog’liqlik grafiklari berilgan. Silindr burchak tezligi $1.5\cdot c^{-1}$ dan $4.0\cdot c^{-1}$ ortganida va botish burchagi $1-\alpha=9°45'$ bo‘lganida F_{ish} qiymatlari $0.08\cdot 10$ sN dan $0.36\cdot 10$ sN gacha nochiziqli bog’lanishda ortib borishini ko‘rish mumkin. Agarda differentsiyalanishdagi silindrni piltaga botish burchagi $5-\alpha=5°45'$; gacha ko‘payganida ishqalanish kuchi $0.28\cdot 10$ sN dan $1.09\cdot 10$ sN gacha chiziqsiz qonuniyatda ortib borishini ta’kidlash mumkin va ishqalanish kuchini ortishi natijasida paxta va sintetik tolalarning uchlari tekislanishini va bir tekisda cho‘zilishi keltirilgan.



7-rasm. Ikkita silindr orasidagi aralash piltalarning harakat sxemasi


7-rasmda birinchi riflyali silindrdan o‘tayotgan sintetik va paxta tolali piltalarni ikkinchi silindrga o‘tishda piltadagi tolalarni bir tekisda cho‘zish va yupqalashda $\omega_{1<}\ \omega_2$ shartdan foydalanib birinchi va ikkinchi silindrlar orasidagi piltaning taranglik kuchini aniqlashda riflyaning qiyalik burchagini hamda silindrlar orasidagi masofalarni to‘g’ri tanlash masalasi ko‘rib chiqilgan. Sintetik va paxta tolali piltalarni cho‘zish jarayonida piltaning taranglik kuchi $T(L)$, piltani uzatishdagi yoy uzunligi L bilan belgilangan.

$$(1+\varepsilon)(\frac{d\varepsilon}{d\varphi}-f\varepsilon)=-f\frac{Q_0R_2^{\ 2}\omega_2^{\ 2}}{ES_0v_0}=-f\frac{\rho_0v_0S_0R_2^{\ 2}\omega_2^{\ 2}}{\rho_0a^2S_0v_0}=-fn^2 \quad (2)$$


bu yerda $n=R_2\omega_2/a$, $a=\sqrt{E/\rho_0}$ belgilash kiritamiz va oxirgi tenglamani qo‘yidagi ko‘rinishda ifodalaymiz.

(2.) tenglama ikkinchi silindrning chiziqli tezligini ma’lum qiymatida shuningdek burchak tezligi geometrik parametrlariga va silindrlar orasidagi masofalarni tanlashni aniqlaydi. Aralash piltalarni bir tekisda yupqalashda oqimni siqish zonasi bo‘ylab xarakatlanishini ta’minlash uchun amalda aralash piltalarni

elastikligini xisobga olish zarur. 8-rasmda f -ishqalanish koeffitsiyenti va $\varphi = \varphi_k$ - burchakning turli qiymatlarida $n = R_2\omega_2 / a$ -nisbatga bog'liqlik grafiklarda ko'rsatilgan. Parametrlar: h_0 = 2 mm, R=10 mm, L=21 mm, ω=0.9s^{-1} E=5Pa, ρ_0=8.5kg/m^3, v_0 = 0,006 m/s, , $\varphi_k = 40^0$, $f = 0.3$.



8-rasm. Pilta qalinligini h_k ishqalanish qalinligini turli qiymatlarida f vaqamrash burchagini φ_k (grad): $1-\varphi_k = 15$, $2-\varphi_k = 30$, $3-\varphi_k = 45$, $4-\varphi_k = 60$ qiymatlaridagi grafigi



a b

9-rasm. a-aralash piltalarni dastlabki cho'zishdagi deformatsiyasi $\varepsilon_1 = 0.1$; b- aralash piltalarni keyingi cho'zishdagi deformatsiyasi $\varepsilon_1 = 0.05$; va ikkinchi silindrning turli xil

1 – d_2 = 30 mm, 2 – d_2 = 32 mm, 3 – d_2 = 34 mm, 4 – d_2 = 36 mm, **diametrlarida qamrash burchagiga bog'liq grafigi**

8-9-rasmlardan sintetik va paxta tolali piltalarni cho'zishdagi deformatsiyaning qamrash burchagiga va ikkinchi silindr diametrlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, zichligi va siqish sohasidagi aralash piltaning qalinligi cho'zish natijasida bir tekisda uzayishi keltirilgan.


Dissertasiyaning **"Yangi konstruksiyadagi ta'minlovchi silindrli piltalash mashinasi cho'zish asbobida sozlash parametrlarini pilta, pilik va ipning sifatiga ta'sirini tadqiq qilish"** deb nomlangan uchinchi bobida tavsiya qilingan riflyali silindrlar piltalash mashinasiga o'rnatilib tajriba sinovlari aniqlangan.

Piltalash mashinasi cho‘zish asbobining chizmalari keltirilgan. Piltalash mashinasida riflyali silindrlarni o’rnatilgan jarayoni va tavsiya qiymatlari aniqlangan. Qayta tarash usulida T=11,8 teks ip olish texnologik jarayon sxemalari keltirilgan hamda to’liq omilli tajribalar asosida parametrlarning maqbul qiymatlari aniqlangan.

10-rasmda RSB-D-40 Piltalash mashinasida riflyali silindrlarini diametrlarini o’lchash jarayoni keltirilgan.



10-rasm. RSB-D-40 Piltalash mashinasida riflyali silindrlarini diametrlarini o’lchash jarayoni



11-rasm. RSB-D-40 piltalash mashinasi cho‘zish asbobining takomillashtirilgan chizmasi

Xususiy cho‘zish va valiklarga bo‘lgan yuklanishning pilta sifatiga ta’siri umumiy cho‘zishning o‘zgarmas ko‘rsatkichi Ye=6,2 va ajratish ko‘rsatkichlari RI-II=40,0 mm, RII-III=41,5 mm bo‘lgan hollarda o‘rganilgan.

Pilta 4 tipga mansub Buxoro-8 selektsiya navli, 1 sanoat nav, oliy sinf paxta tolasi hamda polyester tolasidan ishlangan piltalardan, piltalash mashinasida paxta tolasidan 3 pilta, polyesterdan 3 ta pilta qo‘shib ishlab chiqarilgan.


Eksperimental tadqiqotlarning natijalari shuni ko‘rsatadi, piltalash mashinasining cho’zish asbobini modernizatsiya qilish hisobiga pilta va pilik tuzilmasining notekisligini yangi konstruksiyadagi cho’zish asbobi riflyali silindrlaridan foydalanish orqali yigiruv mashinasida uzilish soni 62% dan 29% gacha pasayib, uzilishlar 1000 dona urchuqda bir soatda 64 tadan 40 taga kamayganligi aniqlandi. Ip sifatini oshirish, yuqori yigiruv stabilligiga erishish, yigirishda uzilishlarni kamaytirishga erishildi.

Ip yigirishda turli markadagi piltalash mashinalaridan foydalaniladi, ular ikkita va bir nechta o‘timda o‘rnatiladi. Ikkinchi o‘timdan foydalanish ipning

mustahkamligini 8%ga oshiradi, uzilish yukidagi notekisligi 15%ga, chiziqli zichlikdagi notekislikni 25÷40%ga kamaytiradi



12-rasm RSB-D-40 Piltalash mashinasida riflyali silindrlarni o'rnatilib mahsulot ishlab chiqarish jarayoni



1-sxema. Qayta tarash usulida T=11,8 teks ip olish texnologik jarayon sxemasi


Optimallashtirishning har bir parametri uchun regressiya tenglamasi tuzilgan. Regressiya tenglamalari koeffitsiyentlarining ahamiyatini baholash Styudent kriteriyasi bo‘yicha, tenglamalarning adekvatligi Fisher kriteriyasi bo‘yicha olib borilgan. 1–jadvalda piltalash mashinasida eksperiment o‘tkazish uchun tayyorlangan tarash piltaning sifat ko‘rsatkichlari keltirilgan.

1-jadval

Piltaning sifat ko‘rsatkichlari

T/r	Ko‘rsatkichlar nomi	Ko‘rsatkichlar
1	Chiziqli zichlik, ktex	4,0
2	Bo‘laklar bo‘yicha o‘zgarish koeffitsiyenti, % 1 m 3 m 5 m	 1,26 0,89 0,75
3	Ko‘ndalang kesim bo‘yicha notekislik,% -chiziqli, Um, -o‘zgarish koeffitsiyenti, Sm	 2,96 3,72
4	Ust.darajasi	75
5	Uzilish kuchi, gs cho‘zilish, mm	485 28,4
6	Nisbiy uzilish kuchi, mdj/ktex	29,58

Optimallashtirish parametrlari ko‘rsatkichlari ustun shaklidagi diagramma 13-rasmda keltirilgan.



13-rasm. Valiklarga bo‘lgan yuklanish va xususiy cho‘zishning pilta notekisligiga ta’siri

Oq rang– kesimi bo‘yicha o‘zgarish koeffitsiyenti (Uster bo‘yicha) Cm,%.


Ko’k rang – kesimi 1 m bo‘laklar bo‘yicha o‘zgarish koeffitsiyent, %.

13-rasmda cho‘zishning birinchi bosqichida xususiy cho‘zishning kamayishi piltaning kesimi bo‘yicha, va shuningdek uzun bo‘laklar bo‘yicha ham notekisligini sezilarli darajada (14-21%) kamayishiga imkon beradi. Cho‘zish asbobining siquvchi valiklariga bo‘lgan yuklanish valiklarning silindrlar bilan aloqasini ta’minlaydi va piltalarni cho‘zish uchun zarur bo‘lgan qisqichlarda ishqalanishni yuzaga keltiradi. Yuklanish yetarli darajada bo‘lmagan holatda


tolaning valikga nisbatan harakatlanishi yuzaga keladi va har qanday xususiy cho‘zishda ham piltaning notekisligi oshib ketadi, optimal ko‘rsatkichdan yuqori yuklanishda ham piltaning tuzilishi yomonlashadi, shuningdek qizish ko‘paygan holda moslamalarning xizmat qilish muddati qisqaradi, elektr quvvati iste’moli oshadi.

Cho‘zish jarayonining stabilligi to‘g’risida Cm\Um nisbati bo‘yicha ham bilish mumkin, qaysiki kesim bo‘yicha tola massasining me’yoriy harakatlanishida 1,28 ga teng bo‘ladi. Mazkur ko‘rsatkichning oshib ketishi tolalarning noto‘g’ri tarqatilishdan darak beradi, bu holat davriy yoki turli omillarning tasodifiy ta’sirida bo‘ladi.


14-rasmda grafiklarni X1 va X2 omillarining ko‘rsatkich darajalarini o‘zgartirib ko‘ndalang kesimi bo‘yicha piltaning notekisligini 3,6% dan 2,76% gacha, ya’ni 19-24% gacha pasaytirish mumkin. X1=-1, X2=0,-1 chegaralarida kesim bo‘yicha eng kam notekislik, ya’ni natural ifodada bu 1,30 xususiy cho‘zish va 320-340 N valiklarga yuklanishga teng.



14-rasm. Xususiy cho‘zish va valiklardagi yuklanish grafigi



15–rasm. O‘zgarish (variatsiya) koeffitsiyentining 1 m kesimlar bo‘yicha tekshirilayotgan omillarga bog’liqligi



16-rasm. Piltaning nisbiy ishining uzilishga tekshirilayotgan omillarga bog'liqligi

15–rasm. Piltaning 1m bo‘laklari bo‘yicha o‘zgarish (variatsiya) koeffitsiyenti xususiy cho‘zishning kamayishi bilan pasayadi. Yuklanish X2=-1 dan X2=0 gacha oshganda notekislik kamaya boradi, lekin X2=0; +1 oralig'ida o‘zgarish koeffitsienti 1m bo‘laklar bo‘yicha ko‘payadi. X1=1; X2=0,1.bo‘lganda o‘zgarish koeffitsienti eng kam bo‘ladi. Pilta uzilishining ishi X1, X2 va ularning o‘zaro ta’siriga chiziqli bog'liq.

16-rasm. Pilta uzilishining eng kam ishi (shuningdek, tolalarning eng ko‘p tekislanganligi va parallellashishi) X1=-1 , X2=0 oralig'ida bo‘ladi, ya’ni natural ifodada bu 1,30 xususiy cho‘zish va 320 N valiklarga yuklanishga mos keladi. Optimallashtirish masalasi quyidagicha shakllanadi, qisqa va uzun bo‘laklar bo‘yicha piltaning notekisligini minimallashtirish, tola tekislanishi va yo‘nalishini oshirish. Bu optimallashtirish vazifasiga dastlabki xususiy cho‘zish 1,30 ga, cho‘zish asbobining valiklarga yuklanishi 320 N ga teng bo'ladi

Dissertasiyaning **“Ishlab chiqarish nazorati va iqtisodiy samaradorlikning hisobi”** deb nomlangan to’rtinchi bobida tavsiya etilgan piltalash mashinasi cho’zish asbobini takomillashtirilgan tajriba nusxasini ishlab chiqarish sinovlari hamda iqtisodiy samara hisobi keltirilgan.

Tavsiya etilgan piltalash mashinasi cho’zish asbobini takomillashtirilgan tajriba nusxasi “Merganteks”MCHJ korxonasiga qo’llab ishlab chiqarish sinovlari o’tkazildi.

Tavsiya etilgan yangi konstruksiyadagi cho’zish asbobi riflyali silindrlaridan foydalanish orqali yigiruv mashinasida uzilish soni 62% dan 29% gacha pasayib, uzilishlar 1000 dona urchuqda bir soatda 64 tadan 40 taga kamayganligi aniqlandi.

Modernizatsiya qilingan yangi konstruksiyadagi cho’zish asbobi riflyali silindrlaridan foydalanish orqali “Merganteks MChJ” korxonasida tadbiq etishdan olingan yillik iqtisodiy samaradorlik 1dona halqali yigirish mashinasi uchun 28 660 000 so’mni tashkil qildi.

Shuningdek, o‘tkazilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

XULOSALAR

Paxta va polyester tolalari aralashmasidan pilta tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasi asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, piltaning sifatini aniqlash bilan bog'liq masalalar, ayniqsa, paxta tolasi aralashmasiga kimyoviy tola singib ketish foizini o'zgartirishda, tolalarning uzunligi bo'yicha tarqalish tabiati hamda kimyoviy hamda paxta tolali aralashmalardan pilta, pillik va ip ishlab chiqarish jarayonlari yetarlicha o'rganilmaganligi aniqlandi.

2. Aralash ipning mustahkamlik xossalarini, tolalarning fizik-mexanik xossalari, notekisligi va xususan ipning sifatini aniqlovchi asosiy ko'rsatkichlar aniqlab olindi.

3. Turli tarkibli piltalarni qo'shish uchun yangi konstruktsiyadagi silindrli piltalash mashinasining cho'zish asbobini sozlashning optimal parametrlari bo'lib: xususiy orqa cho'zish Ye=1,30, valiklarga yuklanish - 320N bo'lganda mahsulot sifati yuqori bo'lishi aniqlandi.

4. Yangi konstruksiyadagi cho'zish asbobi riflyali silindrlaridan foydalanish orqali olingan piltaning kesimi bo'yicha notekisligini 13-23%, 1 m bo'laklar bo'yicha 30% gacha pasayganligi tajriba sinov natijalari asosida aniqlanib, ishlab chiqarish sharoitida takomillashtirilgan cho'zish asbobidan foydalanish tavsiya etiladi.

5. Regressiya tenglamasi ko'rinishida tuzilgan matematik modellar tadqiq qilinayotgan har bir omilning ta'sir darajasini aniqlash va omillarning o'zgarishida paxta va polyester tolalaridan ishlangan piltadan olinadigan pillik va ipning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashning optimal variantlari ishlab chiqildi.

6. Piltalash mashinasining modernizatsiya qilingan cho'zish asbobini ishlash qobiliyatini ishlab chiqarish jarayonida tekshirish natijasida piltaning sifati yaxshilanganligi va qisqa kesimlar bo'yicha notekisliklari kamayishi aniqlandi.

7. Yangi konstruksiyadagi cho'zish asbobi riflyali silindrlaridan foydalanish orqali yigiruv mashinasida uzilish soni 62% dan 29% gacha pasayib, uzilishlar 1000 dona urchuqda bir soatda 64 tadan 40 taga kamayganligi aniqlandi.

8. Tajriba sinovlarini "Merganteks MChJ" korxonasida tadbiq etilgandan keyin ip uzilishlarining kamayishi, yigiruv mashinasida FVK ni (foydali vaqt koeffitsiyenti) oshganligi va chiqindilar miqdorini kamaytirish, xomashyoni tejash va yuqori sifatli ip ishlab chiqarish evaziga korxonada yillik iqtisodiy samaradorlik 1dona halqali yigirish mashinasi bo'yicha 28 660 000 so'mni tashkil qildi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/29.10.2021.T.101.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ

БУХАРСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

САЛИМОВ ШУХРАТ ХАЛИМОВИЧ

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ИЗГОТОВЛЕНИЯ ЛЕНТЫ ИЗ СМЕСИ ХЛОПКОВОГО И ПОЛИЭФИРНОГО ВОЛОКНА

05.06.02- «Технология текстильных материалов и первичная обработка сырья»

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ

Бухара-2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2022.1.PhD/T4266

Диссертация выполнена в Бухарском инженерно-технологическом институте.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.bmti.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

.

Научный руководитель:	**Нурбоев Рашид Худойбердиевич** кандидат технических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Хамраева Сановар Атоевна** доктор технических наук, профессор
	Юлдашев Жамшид Камбаралиевич доктор технических наук, доцент
Ведущая организация:	**Джизакский политехнический институт**

Защита диссертации состоится 21 декаря 2024 года в 10^{00} часов на заседании Научного совета PhD.03/29.10.2021.T.101.03 при Бухарском инженерно-технологическом институте (Адрес: 200117, г. Бухара, ул. К.Муртазоева, 15. Тел.: (+99865) 223-78-84, факс: (99865) 223-78-84; e-mail: bmti_info@edu.uz,).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского инженерно-технологического института (зарегистрирован за № 334). Адрес: 200117, г. Бухара, ул. К.Муртазоева, 15. Тел.: (+99865) 223-78-84, факс: (99865) 223-78-84; e-mail: bmti_info@edu.uz

Автореферат диссертации разослан 06.12.2024 г.
(реестр протокола рассылки № ___ от 06.12.2024 г.).

Х.К. Рахмонов
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор технических наук,профессор

С.С.Мусаев
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, кандидат технических наук,профессор

С.С.Мусаев
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней кандидат технических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире использование энергоресурсосберегающих технологий и оборудования для производства текстильных и швейно-трикотажных изделий занимает одно из ведущих мест. Интенсивно растет производство готовой продукции в текстильной промышленности. В мировой текстильной промышленности 67% продукции составляет хлопковое волокно, 20% химическое волокно, 10% шерстяное волокно, 1,6% лубяное волокно и 1,4% другое волокно. Сегодня рост численности населения, сокращение хлопковых полей, увеличение потребности в натуральном волокне, которое рассматривается как текстильное сырье, требуют внедрения техники и технологий производства текстильной продукции из волокон различного состава. В связи с этим важно использовать качественные и энергоресурсосберегающие технологии и технологии производства текстильной продукции из волокон различного состава.

На мировом рынке проводятся научно-исследовательские и опытно-конструкторские работы, направленные на разработку новых научно-технических решений ресурсосберегающих технологий и технических средств производства нитей и тканей из волокон различного состава. В связи с этим особое внимание уделяется осуществлению целевых научных исследований по таким направлениям, как радикальное изменение качественных показателей пряжи, производство пряжи с конкурентоспособными показателями, создание эффективной системы повышения качества и конкурентоспособности пряжи, развитие технологии.

В Республике принимаются комплексные меры по развитию текстильной и швейно-трикотажной промышленности, поддержке инвестиционной и экспортной деятельности предприятий отрасли, а также широкого спектра высококачественной и низкой себестоимости текстильной и легкой промышленности на основе производства и тщательной переработки хлопкового волокна, увеличению производства и конкурентоспособности ее продукции и достигаются определенные результаты.

В стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены важные задачи по «модернизации и интенсивному развитию текстильной промышленности, устойчивому развитию производства текстильной продукции и значительному повышению ее экспортного потенциала…»[2]. В реализации этих задач важно увеличить ассортимент текстильной продукции из смешанных волокон и создать технически и технологически модернизированные машины в процессе ее производства..

Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-4186 от 12 февраля 2019 года «О мерах по дальнейшему углублению реформ и

[2] Указ Президента Республики Узбекистан, от 28.01.2022 г. № УП-60 “О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”

